

**II guruh (III guruh) iste'molchilariga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish  
xizmatlari ko'rsatish yuzasidan tuzilgan**

9900064587 sonli SHARTNOMA

«10» 01 2022 y.

Ushbu shartnoma «Samarqand suv ta'minoti» MCHJ, keyingi o'rirlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi, Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori Yusupov Komilbek Shuhratovich timsolida, bir tomonidan va, keyingi o'rirlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Samarqand davlat ehel tillar instituti Nizom asosida ish olib boruvchi ktor Turtasinaev J. M., ikkinchi tomonidan, quyidagilar haqida tuzildi:

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Mazkur shartnoma ichimlik suvini yetkazib berish va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tuzilgan bo'lib, shartnomaning umumiy qiymati 10440000 so'mni tashkil qildi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni O'zDSt 950: 2011 «Ichimlik suvi, gigiyenik talablar va sifat nazorati» amaldagi standartiga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, suv quvurlari tarif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) xo'jalik-maishiy va ishlab chiqarish-texnologik ehtiyojlarga yo'naltiradi.

1.3. «Iste'molchi» o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi" ga ko'rsatilgan suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha shartlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldaggi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari" (keyinchalik matnda - Qoidalalar deb yuritiladi) ga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.5. «Iste'molchi» ushbu shartnoma o'zining tasarrufidagi barcha obyektlarining (filial va sub-iste'molchilarning) dislokatsiyasini, ularning suvga bo'lgan ehtiyojlarini ko'rsatgan holda, kadastr nusxasini taqdim etishi, shuningdek rekvisitlari (bank ma'lumotlari, yuridik manzili) dagi o'zgarishlar haqida xabardor qilishi lozim. Iste'molchining hisobga olinmagan ob'yekti aniqlanganda, suv va oqova sarfi Qoidalarga asosan qayta hisob-kitob qilinadi.

**II. Umumiy qoidalar**

2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, piyodalar yo'lakchalariga belgilangan vaqtadan tashqari suv sepish va ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'yan man etiladi.

2.2. Suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi iste'molchi (sub-iste'molchi)larning xo'jalik-iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlarini, yong'inlarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan. "Ta'minotchi"ning tehnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy communal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.

2.3. Iste'molchining ichimlik suv tarmog'idan suv olib, kanalizatsiya tarmoqlariga oqova suv chiqaruvchi subiste'molchilar ushbu holat yuzasidan iste'molchi bilan shartnoma tuzadilar. Asosiy iste'molchi bilan ISKX tashkiloti o'tasida tuzilgan shartnoma ilovasida iste'molchining tarmoqlariga ulangan barcha subiste'molchilar, ularning nomlanishi, qaysi idoraga tegishli ekanligi, ular sarf qiladigan va oqizadigan suv hajmiga doir ma'lumotlar, suvni hisobga olish asboblarining bor-yo'qligi kabi ma'lumotlar qayd etilishi lozim.

2.4. Suv o'chagich asbobini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 20 avgustdaggi № 698-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy reglamentga muvofiq amalga oshiriladi (sanoat suv hisoblagichlari istisno).

2.5. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilgandan so'ng, iste'molchining yozma ravishdagi arizasiga asosan suv o'lchash asbobi ISKX tashkiloti tomonidan ro'yhatga olinadi (plombalanadi).

2.6. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash qurilmasining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiysi, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub-iste'molchilarining ularnishi Iste'molchi tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchining" so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi meyor, qoidalalar va boshqa meyoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ularnish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.8. Qurilgan ularmalarning ishga tushirilishi "Ta'minotchi" korxonasi ishtirokida "Iste'molchi" va qurilish tashkiloti vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

2.9. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar o'zgarganda, sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.10. Limitdan ortiqcha suv iste'mol qilingan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koefitsiyentni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi.

**III. Taraflarning huquq va majburiyatlar**

**3.1. Iste'molchining huquqlari:**

a) "Ta'minotchi"dan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavftug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi" dan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

v) "Ta'minotchi"ni shartnomani bekor qilish to'g'risida kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomanib bir tomoniama bekor qilish;

g) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;

d) "Ta'minotchi"dan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

ye) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnomasi taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

yo) Davlat sanitariya epidemiologiya markazi organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mayjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelgingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

### 3.2. Iste'molchinining majburiyatları:

a) qoidalar va shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zining hududida joylashgan va o'zlariga tegishli bo'lgan kommunal suv hamda oqova tarmoqlari, qurilmalarini qo'riqlanishini, ularga suv toshishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarning butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mayjudligini ta'minlash, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini bekitmaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'satkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;

v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv qurumi, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustiga turli buyum va materiallarning yig'ilishiga hamda suv qurumi, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilmasligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv qurumi, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik.

g) kommunal suv qurumi, oqova tarmoqlari va qurilmalarining tranzit nuqtalarida har qanday shikastlanish, buzilishlar haqidagi zudlik bilan "Ta'minotchi"ni xabardor qilish;

d) suni hisobga olish asboblarida yaqqol ko'rinish turgan nosozliklar, shuningdek tamg'anı butligiga shikast yetgan yoki uzilganligi to'g'risidagi holat aniqlanganda va hisobga olinmagan yong'inga qarshi gidrantlari mavjudligi haqida dárhol yozma ravigda yoki aloqa tarmoqlari (faks, elektron pochta) orqali "Ta'minotchi"ga xabar berish;

ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'satkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'satkichlarni "Ta'minotchiga" joriy oyning oxirgi kunidan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilgan holda to'lovni amalga oshirish;

yo) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvning ortiq sarf qilinishiga va oqova suvlarining meyordan ortiq chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;

i) "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qilish;

ii) ishlab chiqarish oqova suvlarining oldindan tozalash ishlarni olib borish va ularning ifloslanish konsentratsiyasini meyordagi ko'satkichlarga o'tib ketmasligini ta'minlash;

y) oqova suvlarining sifatini monitoringini ta'minlash;

k) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'lchash tarmog'i, communal suv o'tkazish va oqova tizimlarida har qanday ishlarning bajarilishiga begona shaxslarni qo'ymaslik;

l) jamoat suv va kanalizatsiya tizimlarini obyektlariga shikast zarar yetkazgan "Iste'molchi" darhol "Ta'minotchi"ga xabar berishi va yetkazilgan zararni qoplash uchun "Ta'minotchi" texnik nazorati ostida o'zi yetkazilgan shikastlanishni bartaraf etish va behuda sarf qilingan suv narxini to'lashi shart.

### 3.3. Ta'minotchingin huquqlari:

a) "Ta'minotchi" quyidagi hollarda, iste'molchini 5 kun avval xabardor qilgan holda, suv uzatishni va oqova suvni chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:

"Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarining texnik holati qoniqarsiz holatda bo'lsa va "Iste'molchi" texnik foydalanish qoidalarini buzish natijalarini "Ta'minotchi" vakiliari talabiga ko'ra bartaraf etmasa;

"Ta'minotchi"ning vakili iste'molchi hududida joylashgan va uning tasarrufidagi bo'lgan suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarida ishlar olib borish, tamg'a o'rnatishga va boshqa ishlarda "Iste'molchi" tomonidan asossiz xalaqt berilgan taqdirda;

"Ta'minotchi"tomonidan rejali oldini olish ta'mirlash ishlarni, suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida ishlar bajarilishda, "Iste'molchi" ularga ulangan bo'lsa, ya yangi "Iste'molchi"larni ulash uchun ishlarni o'tkazishda;

"Iste'molchi"ning xizmat ko'rsatilishida va uning tasarrufidagi communal suv ta'minoti hamda oqova suvni chiqarish xizmatlariga subiste'molchilarning o'zboshimchalik bilan ulanib o'lganligi aniqlanganda;

"Iste'molchi" belgilangan muddatlarda to'lov hujjalari muvofiq to'lovni amalga oshirmaganda;

"Ta'minotchi"ning roziligidini o'lgan sub-ta'minotchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan communal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlariga ularnishiga rad javobini berganda;

"Iste'molchi"lar tomonidan communal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rioya qilinmaganda;

energiya ta'minoti to'xtatilganda;

tabiiy ofatlarda;

avariyalarda;

yong'in chiqqan yerlarga suv yetkazish hajmini oshirish zaruriyatini tug'ilganda.

### 3.4. "Ta'minotchi"ning majburiyatları:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;

b) suv yetkazilishini uzluksiz ta'minlash;

v) tizimli ravishda suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, iste'mol obyektlari va qurilmalariga ulangan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining holatini va ishini tizimli nazorat qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlashni tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish, budget bilan birgalikda "Iste'molchi"lar suvidan oqilona foydalanish va suvdan oqilona foydalanishni aniqlash, suvni etkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoatga muvofiqligini muntazam ravishda nazorat qilish va ularga tenglashtirilgan suv iste'mol qilish cheklovlariga rioya qilishni nazorat qilish;

g) "Iste'molchi" larning suv o'lchagich asboblarini o'matilgan tartib va muddatlarda tekshirish;

d) "Iste'molchi"ga, ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan hollarida, jarima penya to'lovlarini amalga oshirish;

ye) suv yetkazish va oqova suvni chiqarish uchun xizmat haqi to'lovlarining tariflari oshganda, ular kuchga kirgan kundan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish;

## IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. Taraflar ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarmagan hollarda kelib chiqqan haqiqiy zararning o'mini qoplashi shart.

### 4.2. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgardir:

a) suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismalarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan hamda tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) suv tarmoqlariga o'zboshimchalik ulanib olish, suv o'lchagich asbobining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda uning ko'satkichlari tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlar uchun;

v) o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariyalarni bo'lgan xolatlarda;

g) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda;

d) communal drenaj tizmi mavjud bo'lsa "Iste'molchi" hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarining tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda "Ta'minotchi" o'rnatilgan tartibda dalolatnomasi tuzadi va ushbu dalolatnomasi "Iste'molchi"ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4.3 "Ta'minotchi" quyidagilar uchun javobgardir:

- a) amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda hamda shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqa holdara;
- b) "Iste'molchi" larga suv ta'minotiga ulanish va oqova suvni chiqarish xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdirm qilinishi uchun;
- v) "Iste'molchi"ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;
- g) shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik;
- d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hoilarda.

#### V. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish

5.1. Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi suv o'lchagich asbobi mavjud bo'lganda, uning ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSNI hisobga oлган holda amalga oshiriladi.

5.2. Iste'molchilarining communal kanalizatsiya tizimiga chiqariladigan oqova suvlari miqdori communal suv ta'minoti tizimidan sarflangan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi. Markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti mavjud turar joy va noturar joy xonalaridan chiqadigan oqova suv miqdori iste'molchilar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan qaror bilan belgilangan koeffitsiyentga ko'ra, (barcna guruh iste'molchilar uchun 2 koeffitsiyentdan oshmagan holda), mahalliy sharoitlardan kelib chiqib belgilanadi.

5.3. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda communal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

5.4. Ichimlik suv ta'minoti tizimiga ulanmagan, shuningdek boshqa suv quvurlaridan (manbalardan) o'z ehtiyojlarini uchun qo'shimcha suv ishlataligani iste'molchilar ISKX tashkilotiga texnik ko'rsatmalar bilan birga mavjud suv olish qurilmalari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart. Mazkur ma'lumotlar iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda ISKX tashkiloti ular tomonidan communal kanalizatsiya tizimiga ulanishning o'tkazish quvvati bo'yicha qabul qilinayotgan oqova suvlari miqdorini Qoidalarning 93-bandida nazarda tutilgan formula bo'yicha aniqlashga haqlidir.

5.5. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'limganda, ISKX tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtida (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

Dov-daraxtlar rasmiy ruxsatsiz yoki ko'rsatilgan vaqtida boshqa vaqtida sug'orilgan holatlarda, bir oyda foydalanilgan suv uchun to'lov II va III guruh iste'molchilar uchun ushbu Qoidalarning 87-bandining «b» kichik bandi bo'yicha hisoblanadi.

#### VI. Alohiда shartlar

6.1. Obyekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarini uzib, bu haqda ISKX tashkiloti bilan dalolatnomaga imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik obyektning yangi zimmasiغا yuklanadi.

6.2. "Iste'molchi" suv o'lchagich asbobini ro'yhatga olish, suv o'lchagich asbobining nosozligi, tamg'alarining but emasligi va saqlanmaganligi kabi holatlар «Ta'minotchi» ga faqatgina yozma ravishda xat bilan murojaat etilgan sanadan e'tiboran inobatga olinadi.

6.3. Sarflangan suv hajmi qurvuring o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalender kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

bunda:

M - 0.60 ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koeffitsiyenti;

F - suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha) m<sup>2</sup>;

g - 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

N - suvning metrlardagi bosimi;

t - vaqt- 24 soat, sekundlarda;

#### Quyidagi holatlarda:

6.3.1. "Iste'molchi"da suv o'lhash asbobi buzilgan, nosoz yoki yo'q bo'lgan holatlarda;

6.3.2. Suv o'lhash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotchi"da ro'yhatdan o'tmagan (plombalanmagan) taqdirda;

6.3.3. Suv o'lhash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilganda sarflangan suv sarfi so'nggi tuzilgan dalolatnomaga sanasidan yangi suv o'lhash asbobi o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan (plombalanmagan) kungacha;

6.3.4. "Ta'minotchi"ning suv o'lhash bo'g'inini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi ko'rsatmasi bajarilmaganda;

6.3.5. Suv o'lhash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (tamg'aga) ruhsatsiz tegish natijasida ichimlik suv sofsarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.4. Ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zboshimchalik bilan ulanib olinganlik aniqlangan taqdirda, sarflangan suv va qabul qilingan oqova suvlari miqdori mazkur Qoidalarning 87-bandiga muvofiq, ulanishning suv uzatish quvvati bo'yicha quyidagi kundan boshlab hisob-kitob qilinadi:

o'zboshimchalik bilan ulanish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish dalolatnomasi tuzilgan kundan;

agar o'zboshimchalik bilan ulanish ISKX tashkilotiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'zboshimchalik bilan ulanish kundan boshlab uaniqlangunga qadar, biroq da'vo muddatidan ko'p bo'limgan holda hisoblanadi. Agar o'zboshimchalik bilan ulanish sanasini hujjat bilan tasdiqlashning imkon bo'lmasa, u holda o'zboshimchalik bilan ulanib foydalish davri da'vo davri muddatiga teng bo'ladi.

6.5. Texnik shartlar 2 yil muddatiga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (ob'yeektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur. Texnik shartlari mavjud bo'limgan holda yoki muddati o'tgan holda "Ta'minotchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.6. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan, xokim qarori va kadastr hujjatlari va shu kabilalar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.7. Ishlatilgan suv va chiqarilgan oqova suv uchun to'lovlardan Iste'molchi tomonidan ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar orqali amalga oshiriladi. To'lovlardan o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" tomonidan kechiktirilgan to'lovnинг har bir kuni uchun 0.4% penya hisoblanadi, biroq penyaning umumiy qiymati qarzdorlikning 50% dan oshmasligi lozim.

6.8. "Iste'molchi" hisob raqami mavjud bo'limgan taqdirda, to'lovlardan bank bo'limlarining kirim kassalari orqali hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.9. Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzbib qo'yilgan (o'zboshimchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) shaxslarni qayta ularsha I guruh iste'molchilaridan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida, II va III guruh iste'molchilaridan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida to'lov qayta ularshi amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ularadi.

6.10. Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi" larga belgilangan tarifa nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" yoziladigan e'tiroznomaga to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznomasi "Iste'molchi" ni to'lov talabnomasi va hujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

### VII. Nizolarни hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida Qoidalar va shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar kelishuv yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudi yoki Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudida ko'rib chiqiladi.

### VIII. Fors - major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatinining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va xar bir tarafda bir nusxdadan saqlanadi. Shartnoma taraflar imzolangan paytdan kuchga kiradi. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

9.2. Shartnoma imzolangan sanadan boshlab bir yil muddat davomida haqiqiy hisoblanadi va taraflarning birortasi shartnomani bekor qilish haqida yozma ravishda murojaat qilmasa, keyingi muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

9.2.1. Ushbu shartnoma II guruh iste'molchilar (budget tashkilotlari) uchun G'aznachilik organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagagi 594-sonli Qaroriga muvofiq, majburiy ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Budgetdan mablag' oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-sون bilan ruyxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining G'azna ijrosi koidalari"ga asosan amal qilish muddati 31 dekabr 2021 yilgacha belgilanadi.

9.3. Ushbu shartnomada o'z ifodasini topmagan barcha masalalarning hal qilinishida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagagi 194-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish qoidalari" ga amal qilishadi.

### X. Tomonlarning manzil va rekvizitlari:

"Ta'minotchi"  
«Samarqand suv ta'minoti» MCHJ  
Samarqand sh., O'zbekiston ko'chasi 114 A uy,  
Tel/faks: 66-2370408  
h/r - 22638000800307743396  
ATIB "Ipotecha banki" KAMSIYAT  
Samarqand viloyatini  
MFO 04112-STIR 200613125 XXTUT 90213  
www.suvta'minoti.uz  
  
M.O.

"Iste'molchi"  
Samarqand davlat  
cheb tiflor instituti  
manzil: Samarqand sh. Bostangacha 93  
h/r: 400018601840170941000049008  
MFO 00014 STIR 10100413



Yuridik xulosa:

Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi "Iste'molchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonuni talablariga muvofiq keladi.

АЗИМ ХАСАНОВ  
ЮРИСКОНСУЛЬТ  
ЮК №004836 от 28.02.2016г.

Yuridik xizmat vizesi

"Самарқанд сув таъминоти" МЧЖ va Samarqand davlat chet tillar instituti  
 Shartnomaning 1.2 bandiga ko'ra xar bir kubometr oqova suvlarini qabul qilish narxi

Chorak oylari	Oqova miqdori, kub m	19.01.2022 y xolatiga 1 kub m tarif narxi	Ajratilgan mablag' summasi (indeksatsiyasiz) (so'm)
<b>Год Всего</b>	<b>18000,0</b>	3270,00	<b>58860000,00</b>
<b>1 квартал</b>	<b>18000,0</b>	3270,00	<b>58860000,00</b>
Yanvar	6000,0	3270,00	<b>19620000,00</b>
Fevral	6000,0	3270,00	<b>19620000,00</b>
Mart	6000,0	3270,00	<b>19620000,00</b>
<b>2 квартал</b>	<b>0,0</b>	3270,00	<b>0,00</b>
Aprel	0,0	3270,00	0,00
May	0,0	3270,00	0,00
Iyun	0,0	3270,00	0,00
<b>3 квартал</b>	<b>0,0</b>	3270,00	<b>0,00</b>
Iyul	0,0	3270,00	0,00
Avgust	0,0	3270,00	0,00
Sentyabr	0,0	3270,00	0,00
<b>4 квартал</b>	<b>0,0</b>	3270,00	<b>0,00</b>
Oktyabr	0,0	3270,00	0,00
Noyabr	0,0	3270,00	0,00
Dekabr	0,0	3270,00	0,00

Suv va oqova narxining o'zgarishi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tasdiqllovchi hujjati asosida iste'molchilarga yetkaziladi.

